

## O‘ZBEK XALQ DOSTONLARIDA SAFAR MOTIVI

Sariyeva Gulnurabegim,

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek qahramonlik va ishqiy-romantik dostonlarining fundamental tarkibiy va semantik elementi bo‘lgan “safar motivi” atroflicha tahlil qilinadi. Safar nafaqat qahramonning bir geografik nuqtadan ikkinchisiga jismoniy ko‘chishi, balki ramziy “inisiyatsiya” (kamolot) va ma’naviy yuksalish jarayoni sifatida o‘rganiladi. “Alpomish” va “Go‘rog‘li” turkumlari misolida qahramonning o‘z muhitidan chiqib, “begona hudud”ga o‘tishi shaxsiyatning shakllanishi uchun turtki bo‘lishi ochib berilgan. Tadqiqotda safarning mifologik ildizlari, g‘oyibona yordamchilar (ot, pirlar) roli va chegara to‘siqlarini (daryo, tog‘, sahro) yengib o‘tish masalalariga e‘tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, safar motivi doston dinamikasini ta‘minlash bilan birga, qahramonning qaytishidan so‘ng uning ijtimoiy va axloqiy maqomini qonuniylashtirishga, adolat va urug‘ birligini tiklashga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** o‘zbek folklori, doston, safar motivi, qahramon, inisiyatsiya, Alpomish, Go‘rog‘li, mifologik chegara, madaniy qahramon, epos strukturasi.

**Аннотация.** В статье представлен комплексный анализ «мотива странствия» как фундаментального структурного и семантического элемента в узбекских героических и романтических дастанах. Путешествие рассматривается не просто как физическое перемещение героя из одной географической точки в другую, а как символический процесс «инициации» и духовной эволюции. На примерах циклов «Алпомыш» и «Гороглы» исследуется, как выход героя из зоны комфорта в «чужое пространство» служит катализатором развития личности. Исследование фокусируется на мифологических корнях странствия, роли сверхъестественных помощников (конь, святые покровители) и преодолении пороговых препятствий (реки, горы, пустыни). Результаты показывают, что мотив странствия выполняет двойную функцию: он обеспечивает динамику сюжета и легитимизирует социальный и моральный статус героя по возвращении, символизируя восстановление справедливости и родового единства.

**Ключевые слова:** узбекский фольклор, дастан, мотив странствия, главный герой, инициация, Алпомыш, Гороглы, мифологическая граница, культурный герой, структура эпоса.

**Abstract.** The article provides a comprehensive analysis of the "journey motif" as a fundamental structural and semantic element in Uzbek heroic and romantic epics (dastans). The journey is examined not merely as a physical relocation of the protagonist from one geographical point to another, but as a symbolic process of "initiation" and spiritual evolution. Using examples from the "Alpomish" and "Gorogly" cycles, the study explores how the hero's departure from a state of comfort into a "foreign space" serves as a catalyst for character development. The research focuses on the mythological roots of the journey, the role of supernatural assistants (such as the horse or patron saints), and the overcoming of threshold obstacles (rivers, mountains, deserts). The findings suggest that the journey motif performs a dual function: it drives the plot's dynamism and legitimizes the hero's social and moral status upon their return, symbolizing the restoration of justice and tribal unity.

**Keywords:** Uzbek folklore, dastan, journey motif, protagonist, initiation, Alpomish, Gorogly, mythological boundary, cultural hero, epic structure.

**Kirish.** O‘zbek xalq dostonlari – bu o‘zbek milliy madaniyatining boy merosi bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos badiiylik va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ushbu dostonlar asrlar davomida avloddan-avlodga o‘tar ekan, ularning muhim qismi xalqning tarixiy, madaniy va ruhiy hayotini aks ettiradi. Dostonlar, ko‘pincha, qahramonlik, sevgi, vatanparvarlik va adolat kabi mavzularni o‘z ichiga oladi [1.140]. Safar motivi esa, xalq dostonlarining

ajralmas qismlaridan biri sifatida, qahramonlarning ichki va tashqi dunyo bilan bog'lanishini ko'rsatadi. Safar, doston qahramonlari uchun nafaqat fizik harakat, balki o'zini kashf etish, maqsad sari intilish va yangi tajribalar orttirish jarayonidir. Bu motiv xalqning ruhiy holati, orzu-umidlari va jamoaviy qadriyatlarini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Dostonlardagi safar motivi, ko'pincha qahramonning qiyinchiliklar, to'siqlar va kutilmagan voqealar bilan yuzma-yuz kelishi orqali o'z ifodasini topadi. Bu jarayon, dostonning badiiy tuzilishida va uning ma'nosida muhim o'rin tutadi. Safar motivi o'zbek xalqining qadimiy an'analari, qadriyatlari va madaniyati bilan bog'liq bo'lib, sadoqat va insoniylikni aks ettiradi.

**Adabiyotlar tahlili.** O'zbek folklorshunosligida safar motivi masalasi ko'plab olimlar tomonidan turli nuqtai nazardan o'rganilgan bo'lib, H. Zarifov, B. Sarimsoqov va M. Murodov tadqiqotlarida dostonlarning poetik tuzilishi va motivlar tizimi ilmiy asosda tahlil qilingan. V. Jirmunskiy va V. Propp asarlarida esa qahramonlik eposlaridagi syujet qurilishi, motivlarning tipologik umumiyliklari hamda ularning strukturaviy funksiyalari yoritib berilgan. T. Mirzayev va S. Yo'ldosheva ishlari o'zbek dostonlarining variantlari va ishqiy-romantik yo'nalishidagi badiiy xususiyatlarni ochib berishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy tadqiqotlarda, xususan J. Eshonqul asarlarida, safar motivining mifologik ildizlari, ramziy ma'nolari hamda qahramon obrazining shakllanishidagi o'rni chuqur tahlil etilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'zbek folklorshunosligida zamonaviy tamoyillari hamda umumfilologik tahlil usullari dostonlar motivlari tahlilida qo'l keladi. Maqolada qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Biz "Alpomish" kabi qahramonlik eposlari hamda "Go'rog'li" turkumidagi ishqiy-romantik dostonlardagi safar motivlari o'zaro qiyoslash jarayonida qiyosiy-tipologik metoddan foydalanamiz [3.56].

**Tahlillar va natijalar.** "Alpomish" va "Go'rog'li" dostonlarida Alpomishning Qalmoq eliga safari bilan Avazxon yoki Ravshanbekning safari o'rtasidagi tipologik o'xshashliklar ko'zga tshlanadi. Bu esa o'z navbatida safar motivining janr o'zgarishiga qarab qanday transformatsiyaga uchrashini tushunish imkonini berdi.

Safar motivini dostonlar kompozitsiyasining ajralmas qismi sifatida uch bosqichli tizim asosida ko'rib chiqish mumkin bo'ladi:

Safar oldi – qahramonning o'z muhitidan ajralishi va yo'lga tayyorgarlik ko'rishi.

Safar jarayoni – sinovlar, to'siqlar (daryo, cho'l, tog') va yordamchilar bilan uchrashuv bosqichi.

Qaytish – maqsadga erishish va jamiyatga yangi maqomda qaytib kelish.

Ushbu bosqichlarning har birini syujet zanjiridagi mantiqiy vazifasi nuqtayi nazaridan tizimli tahlil qilib chiqish mumkin.

Safar motivini qadimgi mifologik tasavvurlar bilan bog'liq holda o'rganish qator tipologik jihatlarni yoritish imkonini beradi. Dostonlardagi daryo kechuvi, qorong'u

g'orlar yoki cho'llarda sarson bo'lib yurishi, qahramonning o'lim va qayta tug'ilish jarayonini ifodalovchi mifologik elementlar sifatida talqin qilinadi.

Bu mavzu bo'yicha sosiy manba sifatida baxshilar (Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan shoir, Ergash Jumanbulbul o'g'li) tomonidan kuylangan doston variantlarining matnlariga murojaat qilamiz. Ushbu variantlardagi safar bilan bog'liq an'anaviy epik formulalar va tasvirlar lingvo-poetik jihatdan o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

O'zbek xalq dostonlari, xususan, "Alpomish", "Go'rog'li" turkumi va ishqiy-romantik dostonlar matnlari tahlili natijasida safar motivining yuqoridagi qonuniyatlari mavjudligi namoyon bo'ladi.

Safarning epik uch bosqichi. Aytish mumkinki, dostonlarda safar motivi qat'iy mantiqiy ketma-ketlikka ega bo'lib, bular:

Safar oldi – qahramonning ot tanlashi, qurol-yarog' taqishi va yaqinlaridan (ota-onasi yoki piri) oq fotiha olishi. Masalan, "Alpomish" dostonida Boychiborning tanlanishi va uning safarga tayyorlanishini alohida epik tasvir ob'ekti sifatida olishimiz mumkin.

Safar jarayoni – qahramonning o'z yurtidan begona yurtga borishi. Bu bosqichda daryo, cho'l yoki tog' kabi tabiiy to'siqlar qahramonning irodasini sinovdan o'tkazuvchi mifologik chegara vazifasini o'taydi.

Maqsadga erishish – safar yakunida qahramon o'z raqibi (shoh, dev, qalmoq alpi) ustidan g'alaba qozonadi yoki o'z sevgilisiga yetishadi.

O'zbek xalq dostonlarida qahramonga safari davomida "G'oyibdan kelgan yordamchilar va yo'l ko'rsatuvchi obrazlar" yordam beradi. Bular tulpor, Xizr yoki Pirlar, chol va kampir obrazlaridir. Ot qahramonga yo'l ko'rsatadi, xavfdan ogohlantiradi (masalan, "Go'rog'li"da G'irotning gapirib, egasiga maslahat berishi). Safar davomida qiyin vaziyatlarda g'oyibdan yordam beruvchi kuchlar qahramonni yomonliklardan asraydi. Kampir va chol obrazlari ko'p hollarda yo'l yoqasida uchrab, qahramonga manzil haqida ma'lumot berishadi.

Safar yakunida qahramon faqat jismoniy g'alabaga erishib qolmay, balki uning ma'naviy yuksalishi, o'sishi yuz beradi. U safarga "yigit" bo'lib ketib, "alp" yoki "komil inson" bo'lib qaytadi. O'zbek xalq dostonlarida safar motivi bu shunchaki syujet qurilmasi emas, balki qahramonning shaxs sifatida shakllanish jarayoni hisoblanadi [7.43].

O'zbek dostonlaridagi safar motivi jahon eposlari (masalan, "Odisseya", "Ramayana" yoki "Manas") bilan qiyoslanganda, umuminsoniy va milliy xususiyatlarning uyg'unligini ko'rish mumkin. Biroq, o'zbek dostonchiligida safarning o'ziga xos "ot bilan bog'liqlik" va "pir-u madadkorlar ko'magi" kabi elementlari uni boshqa xalqlar eposidan ajratib turadi [4.91]. Masalan, g'arb eposlarida qahramon ko'pincha o'z kuchi va aqli bilan safar qilsa, o'zbek dostonlarida qahramonga hamrohlik qiluvchi Boychibor yoki G'irotni kabi tulporlar uning taqdirini belgilovchi asosiy kuchdir.

Folklorshunos V. Propp [5.47] va B. Sarimsoqov [2.77] nazariyalariga tayanadigan bo'lsak, safar – bu qahramonning "o'lishi" va yangi maqomda "qayta tug'ilishi"dir.

Safargacha bo‘lgan Hakimbek (“Alpomish”) va safardan keyingi Alpomish – bular ikki xil ijtimoiy-psixologik portretidir. Safar qahramonni mas’uliyatli, sabrli va strategik fikrlovchi shaxsga aylantiradi. Ayniqsa, ishqiy dostonlarda (“Ravshan”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Kuntug‘mish”) safar qahramonning yosh yigitdan sadoqatli va mard yor darajasiga ko‘tarilishini ifodalaydi.

**Xulosa.** Safar motivi doston kompozitsiyasining shunchaki bir qismi emas, balki asar syujetini harakatlantiruvchi asosiy mexanizmdir. U qahramonning “tinchlik” holatidan “kurash” holatiga o‘tishini ta’minlaydi va asar tugunidan yechimigacha bo‘lgan masofani mantiqiy tartibga solidi [6.94]. Dostonlarda safar motivi qahramonning shaxs sifatida shakllanish bosqichidir. Safar davomida qahramon (Alpomish, Go‘rog‘li, Ravshan) turli jismoniy va ruhiy sinovlardan o‘tib, oddiy inson darajasidan xalq ideallari darajasidagi alp yoki komil shaxs maqomiga ko‘tariladi. Safar davomida uchraydigan to‘siqlar qadimiy mifologik tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lib, “o‘zgalar” dunyosiga o‘tish chegarasini bildiradi. Bu chegaralarning yengib o‘tilishi adolat g‘alabasini ramziy ifodalaydi. O‘zbek dostonlaridagi safar motivining o‘ziga xosligi – unda ot (Boychibor, G‘irot) va g‘oyibona yordamchilar (Xizr, pirlar)ning faolligidir [8.114]. Ular qahramonning taqdirini yo‘naltiruvchi va safar muvaffaqiyatini ta’minlovchi hal qiluvchi kuchlar sifatida namoyon bo‘ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zarifov H. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 1973.
2. Sarimsoqov B. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi terminlari lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1991.
3. Mirzayev T. “Alpomish” dostonining o‘zbek variantlari. – Toshkent: Fan, 1968.
4. Жирмунский В. М. Тюркский героический эпос. – Ленинград: Наука, 1974.
5. Пропп В. Я. Морфология волшебной сказки. – Москва: Наука, 1969.
6. Murodov M. O‘zbek dostonlari poetikasi. – Toshkent: Fan, 1985.
7. Yo‘ldosheva S. O‘zbek ishqiy dostonlari poetikasi. – Toshkent: Universitet, 2002.
8. Eshonqul J. Mif, folklor va obraz. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2008.